



THE SIGNIFICANCE OF THE INSTITUTE OF PUBLIC DISCUSSIONS IN THE DEVELOPMENT OF JADIDS MOVEMENT

Abdusamat Turgunboev

*lecturer, researcher,
Fergana State University,
Uzbekistan, Fergana*

ABOUT ARTICLE

Key words: Public, public discussion, institution of public discussion, equality, organization, activism, youth education, society and management.

Received: 23.12.24

Accepted: 25.12.24

Published: 27.12.24

Abstract: In this article, looking at the activities of the Jadidist movement and its representatives, we tried to approach the concept of the institution of public discussions scientifically. At this point, we can observe that public discussions are embodied as a separate independent institution that serves to ensure the well-being of the society, expressing its goals and tasks, manifestations and forms. If we pay attention to our national history, we will see that public institutions have served as an effective method of regulating family and community relations in the history of individuals. In addition, we can emphasize that he promoted the principles of free thinking, equal rights, and justice in the management of state and public affairs, expressing the essence of the current democratic principles in society and state management. In the article, we paid attention to the ideas, promotion work, and achievements of our modern scholars based on the realization of national identity, attention to youth, based on the rich sources of our national history. Among the studied resources, we witnessed the fact that it is based on the principle of cooperation and teamwork for the development of society, the establishment of the institution of public discussions to study public opinion on current issues and solve existing problems.

**JADIDCHILIK HARAKATLARI RIVOJLANISHIDA JAMOATCHILIK
MUHOKAMALARI INSTITUTINING AHAMIYATI**

Abdusamat Turgunboyev
o'qituvchi, mustaqil tadqiqotchi
Farg'onan davlat universiteti,
O'zbekiston, Farg'ona

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jamoatchilik, jamoatchilik muhokamalari, jamoatchilik muhokamalari instituti, teng huquqlilik, tashkilotchilik, faollik, yoshlarga ta'lif berish, jamiyat va boshqaruv.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakati va uning namoyondalari faoliyatiga nazar solar ekanmiz ularning olib borgan faol harakatlari davomida jamoatchilik muhokamalaridan keng foydalanganliklarini kuzatamiz. Mazkur faoliyatdan kelib chiqib jamoatchilik muhokamalari instituti tushunchasiga ilmiy yondoshishga harakat qildik. Shu o'rinda jamoatchilik muhokamalari o'zining maqsad va vazifalari, ko'rinishlari va shakllarini ifodalagan holda jamiyat hayoti uchun, uning farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi alovida mustaqil institut sifatida gavdalanganligini kuzatishimiz mumkin bo'ldi. Milliy tariximizga e'tibor qaratar ekanmiz jamoatchilik institutlari kishilik tarixida oila va jamiyat munosabatlarini tartibga solishda samarali usul sifatida xizmat qilib kelganligini guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari, jamiyat va davlat boshqaruvida ham hozirgi demokratik tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'zida aks etga holda o'sha davrda ham erkin fikrlilik, teng huquqlilik, davlat va jamoat ishlarini boshqarishda adolatlilik prinsplarini targ'ib qilganligini ta'kidlashimiz mumkin. Maqolada jadid ulamolarimizning milliy o'zlikni anglash, yoshlarga e'tibor, milliy tariximizning boy manbaalariga tayangan holdagi olg'a surgan g'oyalari, targ'ibot ishlari, erishilgan yutuqlariga e'tibor qaratdik. O'rganilgan manbaalar qatorida jamiyatni rivojlantirish uchun hamkorlikda ish olib borish va jamoaviylik prinispiga asoslanganligi, dolzarb masalalar bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish va mavjud muammolarni hal etishda jamoatchilik muhokamalari institutini tashkil qilganligini guvohi bo'lamiz.

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА ОБЩЕСТВЕННЫХ ОБСУЖДЕНИЙ В РАЗВИТИИ ДВИЖЕНИИ ДЖАДИДОВ

Абдусамат Туругунбоев

преподаватель, исследователь

Ферганский государственный университет

Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общественность, общественные обсуждения, институт общественных обсуждений, равенство, организация, активизм, образование молодежи, общество и управление.

Аннотация: В данной статье, рассматривая деятельность джадидистского движения и его представителей, мы попытались научно подойти к понятию института общественных дискуссий. На этом этапе мы можем наблюдать, что общественные дискуссии воплощаются в отдельный самостоятельный институт, служащий обеспечению благополучия общества, выражающий его цели и задачи, проявления и формы. Если мы обратим внимание на нашу национальную историю, то увидим, что общественные институты служили эффективным методом регулирования семейно-общественных отношений в истории личности. Кроме того, можно подчеркнуть, что он пропагандировал принципы свободомыслия, равноправия и справедливости в управлении государством и общественными делами, выражая суть действующих демократических принципов в обществе и государственном управлении. В статье мы уделили внимание идеям, пропагандистской работе и достижениям наших современных учёных, основанным на реализации национальной идентичности, вниманию к молодёжи, опирающемуся на богатые истоки нашей национальной истории. Среди изученных ресурсов мы стали свидетелями того, что в его основе лежит принцип сотрудничества и командной работы для развития общества, создание института общественных дискуссий для изучения общественного мнения по актуальным вопросам и решения существующих проблем.

KIRISH

Jamoatchilik muhokamalari instituti tushunchasi o‘zining mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalari, ijtimoiy boshqaruv va nazorat funksiyalariga ko‘ra juda qadimiy boy tarixga ega. Bu jamoatchilik instituti kishilik tarixida oila va jamiyat munosabatlarini tartibga solishda **samarali usul**, jamiyat va davlat boshqaruvida esa demokratik **tamoyillardan samarali foydalanish vositasi** sifatida turli shakl - shamoyillarda qo‘llanilib kelinmoqda.

Dastlabki jamoatchilik muhokamalari mavzulari markazida kishilik jamiyati uchun bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolayotgan talablar: tinch-totuv yashash, tenglik,adolat, birodarlik, o‘zaro yordam, hurmat va izzat, mehr-muhabbat ko‘rsatish va boshqa insoniy qadriyatlar gavdalangan. Bu qadriylarga erishish istagi kishilarda orzu-umidlarga asoslangan ma’naviy-ahloqiy ehtiyojlarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

ASOSIY QISM

Jamoatchilik muhokamalari tarixida Vatan ozodligi va erkinlik uchun kurash mavzusi alohida o‘ringa ega. Xalqimiz yer yuzidagi eng qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalqlardan biri sifatida o‘z erki va ozodligi yo‘lida kurashishda jamoat bo‘lib birlashishning beqiyos katta ahamiyatini juda erta anglab yetgan, shu bilan birga g‘oyaviy va mafkuraviy birlashishga asos bo‘lgan yozma manbaalarni muqaddas deb bilgan. Shu bois ham xalqimizni o‘ziga bo‘ysundirishga harakat qilgan dushmanlar avvalo, uning boy madaniyatini yo‘q qilishga, moddiy va ma’naviy xazinalarini talon-taroj qilishga harakat qilganlar. Bunga tarixda juda ko‘p misollar keltirish mumkin.

Milliy g‘oya tushunchasi ham falsafiy ma’nosiga ko‘ra millat birlashuvi va milliy o‘zlikni anglab yetish mazmunida ifodalanib jamoatchilik fikrining shakllanishida muhim omildir. “Jamoatchilik fikri – nisbiy tushuncha, unda haqiqat hamisha ham to‘la-to‘kis zuhur bo‘lavermaydi. Jamoatchilik fikrining haqiqatlik darajasi o‘sha fikrni bildirgan jamoa tarkibi kimlardan iborat ekanligiga, unga kim yetakchilik qilganligiga bog‘liq”.

Jadidchilik harakatlarining asoschilaridan Ismoil Gasprinskiy ta’kidlaganidek, insonlarni bir g‘oya ostida birlashtirish natijasida jamiyatning har bir a’zosi millat manfaatini o‘zining shaxsiy manfaati sifatida qabul qila boshlaydi; natijada millatga foyda keltiradigan har qanday jamoat ishidan hech kim o‘girilib ketmaydi.

Darhaqiqat, jamoatchilik fikrini shakllantirishda unda ishtirok etuvchi faol shaxslar, ma’naviyat va ma’rifat targ‘iboti bilan shug‘illanuvchi, o‘z fikri bilan boshqalarni ergashtira oladigan taniqli odamlarning roli hal qiluvchi kuchga ega bo‘ladi. Aynan shu yo‘nalishda o‘z faoliyatini shakllantirgan jadidchilik harakati uchun “yangi tafakkur”, “yangi inson” va “yangi avlod” g‘oyalari adabiyotshunos olim Begali Qosimov ta’biri bilan aytganda, mustahkam asos bo‘ldi. Bevosita mazkur g‘oyalarni targ‘ib qilishda xalqning fikrini uyg‘otish va shu yo‘lda jamoatchilik fikrini shakllantirish jadidchilik harakati faollarining muhim vazifalaridan biri edi.

O‘z o‘rnida mazkur ezgu maqsad yo‘lida jamoatchilik fikrini harakatga keltirishda aynan jadidlar jamoasi yorqin namuna ko‘rsatdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston rus chorizmi tomonidan bosib olindi. Bu bosqinchilik harakati ijtimoiy fikrda keskin burilish yasadi,adolatsiz bosqinchilik urushlaridan katta jabr ko‘rgan xalq ijtimoiy ongida mustamlakachilarga qarshi ozodlik va erkinlik g‘oyalariga asoslangan ma‘rifatchilik harakati avj oldi. Bu harakatlarga jadidchilar yetakchilik qildilar. Uning eng faol vakillari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Muhammad Sharif So‘fizoda, Saidrasul Aziziy, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ziyoilolar yangi ta’limtarbiya shaxobchalari, maktab, maorif, madaniy targ‘ibot ishlariga bosh-qosh bo‘lish orqali avvalo, xalqimizni ma‘rifatli qilishga, Vatan ozodligini istayotgan xalqni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga, uning buguni va kelajagi to‘g‘risida qizg‘in boshlangan muhokamalar va munozaralarga yetakchilik qilishga harakat qildilar.

Ularni o‘z maqsadlariga erishish uchun tanlagan xatarli yo‘llari, shaxsiy fojealari xalqimiz ijtimoiy fikrini yanada o‘sishiga, Vatan ozodligi va erkinligi uchun kurashlarni avj olishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, xalqni jipslashishga, millat sifatida yagona mafkuraga ega bo‘lishiga katta turtki berdi. Millatning buyuk kelajagi uchun dadil qadam bosish va bu yo‘lda vatanparvar inson sifatida o‘z jonini fido qilish kabi xarakatlarda jadid ulamolarimiz shaxsiy na’muna ko‘rsatdilar.

Xalq ommasining tafakkurini oshirish, xayotiy tajribaga va boy tarixga ega bo‘lgan milliy an'analarimizni asrab avaylash yo‘lida eng dolzarb masala sifatida ta’limga e’tibor qaratilib, xalqimizning maorif tizimini yangi bosqichga olib chiqish lozimligiga qat’iy qaror berdilar.

Jadidchilik harkatining yirik namoyondasi Munavvar qori Abdurashidxonovning ham say-harakatlarida millat ruhiyatini ko‘tarish, xalq orasida rus-tuzem maktablariga qarama-qarshi milliy ong va milliy g‘ururni kuchaytirish maqsadida ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratish va yangi tipdagi ta’lim dargohlarini ochishga bel bog‘laganligini kuzatishimiz mumkin. “Bir tomondan din peshvolari “kufr” deb e’lon qilgan, ikkinchi tomondan, mustabid mustamlakachilar qarshilik ko‘rsatgan, uchinchi tomondan, xalq ommasi hali qo‘rquv va esankirash iskanchjasida turgan zamonda Munavvar qori yangi “usuli savtiya” maktablariga millat istiqbolini belgilovchi, keljakda mustaqillik dunyosiga dadil qadam tashlaydigan kishilarning ongini uyg‘otuvchi ma‘rifat va madaniyat maskani”, deb qaradi.

O‘z o‘rnida Munavvar qori Abdurashidxonov butun faoliyati davomida keng jamoatchilik fikrini shakllantirish va birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiya sohasiga e’tibor qaratdi. Yangi tipdagi maktablarni ochish zamon talabi ekanligi, yoshlarni zamonaviy bilimlarga o‘rgatish orqali turli yod g‘oyalarni kirib kelishini oldini olishga keng jamoatchilikni munosabat bildirishiga va bu yo‘lda faol ishtirok etishlariga undadi. Bu borada turli toifa kishilari o‘rtasida suhbatlar,

uchrashuvlar uyushtirishga harakat qildi, yig‘inlarda ishtirok etib ta’lim sohasida hususan, maorif tizimida yangilash masalalarida jamoatchilik muhokamalarini tashkil etdi.

Munavvar qori Abdurashidxonov “Turon” jamiyatni a’zolari va mahalliy boylarni bir joyga to‘plab, ulardan ko‘mak olishga harakat qildi. Ana shu jamiyatning a’zosi Abdurahmon Akbarov xotirlaydi: “To‘dadagi jadidlarning bosh rahbari bo‘lgan Munavvar qori bir kuni to‘daning majlisiga kelib: “Ziyoli yoshlardan bir nechtasini Germaniyaga yuborib o‘qitish kerak”, deb uzoq nutq so‘zlaydi... Yana bir yig‘inda Munavvar qori: “O‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga juda muhtojmiz, bolalar o‘qub, ilm tahsil olib kelsalar, millatiga katta xizmat qila oladilar”[5] degan edi.

Ma’rifatparvar jadid Isxoqjon Ibratning hayoti va mehnat faoliyati davomida ham aynan milliy g‘urur va hur fikrlilikni shakllantirishda ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘chirish bosh maqsad qilib olindi. Mamlakatni qoloqlikdan chiqarish, xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik hamda ma’naviy inqirozdan saqlab qolishda jamoatchilik orasida o‘zining beqiyos tashabbuslarini ko‘rsatgan holda bunday tubanlikdan qutilishning birdar bir yo‘li yoshlarni ilm-ma’rifatli qilish ekanligini keng jamoatchilik orasida targ‘ib qildi. Isxoqjon Ibrat yangicha ta’lim-tarbiya tizimining imkoniyatlarini namoyish qilishda asosan erishgan yutuqlarga, o‘zi amaliyotda tadbiq etgan yangi usullarga asoslanganligini yozadi. Jumladan: “Men o‘zum ham o‘zumga qarashli o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski mакtabda hech babra topmay, behuda yurduklarina jonim achib, Qozon tarafindan... bir muallim jalb edub, maktab qilib berdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q, yigirmadan ziyoda kichik bolalar, o‘n beshta odamlar “alif nima?” degan savolina “kaltak” deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurgon bo‘ldilar. To‘rtbeshta, yetti va sakkiz sanalar Qo‘qong‘a yurub hech narsa bilmagan mullabachchalar bitamomihi arabiy mukolamag‘a qodir bo‘lub, har bir kitoblarni mutoalaa etadurgon bo‘ldilar. Shul sababdin biz ko‘zumiz ila tajriba qilib, bul o‘qitishga tamom ixlos qildik” deb ta’kidlaydi[6].

Jadidchilik harakati namoyondalarining faol harkatlari keng xalq ommasini birlashishiga olib keldi, olib borgan islohotlar natijasida esa mamlakat aholisi xayotida yangilanish davri boshlandi.

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir.

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...

Xalq qo‘zg‘alsa kuch yo‘qdir, kim to‘xtatsin.

Quvvat yo‘q, kim xalq istagin yo‘q etsin.

Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi.

Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...[7]

Abdulhamid Cho‘lponning ushbu “Xalq” she’ri o‘z millatiga bo‘lgan ishonchi hamda birlashgan xalqning naqadar beqiyos kuchga ega bo‘lishini namoyish etishi bilan bir qatorda

jamoatchilik fikrini uyg'otishga bo'lgan dadil bir qadam bo'ldi. Ushbu misralar misolida xalqimizning boy tarixi mavjudligi, allomalarimiz qoldirgan ma'naviy meros xalqimizning ongu tafakkurida doimiy saqlanib turganligini kuzatishimiz mumkin. Bugungi zamonaviy dunyo sharoitida ham ma'naviy merosimiz yuqoridagi misralar timsolida xalqimizning muhokama markazida bo'lib yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Jadidchilik harakati o'zining jamoatchilik aloqalariga nisbatan doimiy harakat mexanizmiga ega ekanligini tarixiy manbalar asosida kuzatishimiz mumkin. Farg'ona vodiysi jadidchilik harakati ham dastlab maorif sohasida keng quloch yozdi, yoshlarni milliy an'analar va milliy g'oya ruhida tarbiya topishlarida jadid ulamolarimizning sai-harakatlari beqiyos bo'ldi. Fan, ta'lim, maorif sohalarini taraqqiy ettirilishi xalqimiz ko'z o'ngida boy tariximiz, ota-bobolarimizning dunyo ilm-fan sohasiga qo'shgan hissalari nechog'lik katta ekanligini qayta namoyish etdi.

XIX asrga kelib Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida jahon xalqlaridan ortda qolayotganligini o'sha davrda yashab o'tgan ilg'or fikrli ziyolilarimiz o'z vaqtida anglab yetgan holda xalqni jipslashtirishga, milliy g'oya tushunchalarini ommaviy targ'ib etishga kirishgan edilar.

Mustamlakachilik boshqaruv tizimida harakatlanish har qancha taxlikali bo'lmasin, ushbu jadid g'oyalari keng jamoatchilik tomonidan mammuniyat bilan qarshi olindi. Jamoatchilik muhokamalarida o'rganilgan vatan ozodligi, milliy istiqlol g'oyasi, tarix boyliklarimizni qayta tiklash mavzulari o'zining ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi. Bu yo'nalishda hur fikrli ulamolarimiz jamoatchilik muhokamalarini to'g'ri tashkil qilish va uning natijalarini keng xalq ommasiga to'g'ri talqin qilinishiga erishdilar. Shu bois yangicha ta'lim dasturlari, yangicha hayot tarziga o'tish, mustamlakachilarga bosh egmaslik kabi jamoatchilik fikrlari shakllantirildi.

Tarixiy manbaalarga asosan Farg'ona vodiysidagi jadidchilik harakatining rivojlanish jarayonini 3 bosqichga bo'lish mumkin:

1. XIX asr oxiridan 1908 yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda vodiyda dastlabki yangi usul maktablari ochildi. "Tarjimon" va boshqa gazeta jurnallar vodiy ziyolilari orasida keng yoyildi.
2. 1908 yildan 1917 yilgacha bo'lgan davr. Ma'rifatparvarlikning kengayishi va siyosiy faollashuvining o'sish bosqichi. "Shamsinur" jamiyati, milliy matbuot rivojlanishi, yangi darsliklar yozilishi. "Taraqqiyoparvar", "G'ayrat" jamiyatları va kutubxonalari ochildi.
3. 1917 yildan 1918 yilgacha Farg'ona jadidlarining Turkiston Muxtoriyati uchun kurash bosqichi. 1917 yil fevral inqilobidan keyin "Tirik so'z", "Kengash", "Yurt", "Hurriyat" kabi yangi yangi jurnallar nashr etildi. Turkiston Muxtoriyatida Farg'ona jadidlari ishtirok etdilar[8].

Taraqqiyoparvarlar maishiy turmushga e'tibor qaratib, xususan, milliy to'ylar islohiga doir fikrlarini "Sadoi Farg'ona" gazetasi saxifalari orqali ommaga yetkazganlar. Farg'ona jadidlari

ma'rifatni omma orasida keng yoyish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Maktab-maorif, matbuot, badiiy asarlar, teatr san'ati orqali o'z g'oyalarini targ'ib qildilar[9].

Xalqimiz ijtimoiy fikri rivojlanishida asosiy maktabga aylangan Jadidchilik harakati sho'rolar inqilobidan so'ng ham yanada kuchaydi. Chunki, ular jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga zid uyushtirilgan bu kommunistik inqilob amalda xalqimizga ozodlik va erkinlik bera olmasligini oldindan yaqqol ko'ra oldilar, ma'naviy-axloqiy boy tarixiy merosimizni oyoq osti qilinishiga qarshi kurashga yetakchilik qilishga harakat qildilar.

Turkiston tarixida jadidlar harakati hamda ularning amalga oshirgan ishlari o'ziga xos iz qoldirdi. Jadidchilik harakatining barcha ishtirokchilari, ulamolar, faollar, targ'ibot ishlarida ishtirok etgan har bir faol kishilar o'zaro hamfikr bo'lib, hamkorlikda o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishdilar. Oldilarida turgan muammolarni o'rganish va ularni hal etishda turli yo'naliishlarda muhokamalar tashkil etib keng xalq ommasini jalb qilishga erishdilar. Jadidlar – istiqlol kurashining g'oyaviy ilxomchilari edilar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek, "Ular shu yo'lida fidoiylik ko'rsatib, yangi usul mакtablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordilar"[10].

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, jadidchilik harakatining jamoatchilik bilan ishslash usullari hamda jamoatchilik muhokamalarini olib borishidagi ishtiroki dolzarb hisoblanib, erishilgan yutuqlarni bugungi kunda ham takomillashtirish maqsadga muvofiq sanaladi:

- birinchidan, jadidlar tomonidan jamoatchilik muhokamalarini samarali tashkil etishga qaratilgan uslubiy qo'llanmalar yaratildi va undan foydalanishda ma'lum ma'noda muvofaqiyatga erishildi. Ma'rifatparvarlik g'oyalarini xalq orasida targ'ib qilishga xizmat qiluvchi gazeta va jurnallar nashr etildi. Jadidlar tomonidan chop qilingan "Najot", "Ulug' Turkiston", "Oyna", "Turkiston viloyatining gazeti", "Taraqqiyot", Xurshid" singari gazeta va jurnallarda ilm-ma'rifatni targ'ib etuvchi maqolalar taqdim etildi[11].

- ikkinchidan, jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish, uni amalga oshirish usul va vositalarini muntazam takomillashtirib borilishi natijasida davlat va jamiyat boshqaruvida jadidlarning faol ishtiroki ta'minlandi deyishimiz mumkin. "Munavvar qori Abdurashidxonov Qur'oni yoddan bilgan, Maxmudxo'ja Behbudiy muftilik qilgan, demak, ular shariat ilmining bilimdoni bo'lganlar. Ana shu dindor bobolar o'zлari orzu qilgan ozod yurtda parlament — Millat majlisini tashkil etish, har bir hududning o'ziga xosligi inobatga olingan qonunlar tuzish niyatida bo'lganlar, bu maqsad yo'lida inson uchun eng aziz bo'lgan jonlarini tikkanlar"[12].

- uchinchidan, jadid ulamolari hamda faollarining jamoatchilik bilan muloqotlari hamda munosabatlari, avvalo, aniq dasturiy maqsadlardan kelib chiqib tashkil etildi. Hususan, barcha hududlarda jadidchilik harakatining birlamchi maqsadi mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilish bo‘lsa, bu yo‘nalishdagi birinchi qadam xalqning tafakkurini oshirish, maorif tizimini isloh qilishdan boshlandi.

- to‘rtinchidan, jadid ulamolari hamda faollari tomonidan aholi o‘rtasida muntazam targ‘ibot ishlari olib borildi. Mazkur targ‘ibot ishlarida dastlab ilm-fan, ta’lim tizimini rivojlantirish maqsad qilib olingan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda yurt ozodligi, mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish, milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish maqsad qilib olindi.

- beshinchidan, jadidchilik harakatini jamoatchilik muhokamasi instituti sifatida o‘rganishimiz mumkin. Bunda harakatning mazmun-mohiyati hamda faoliyati yo‘nalishidan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘z davrida xalq uchun jamoatchilik fikrini shakllantirgan va unga mos ravishda muhokama mavzularini o‘rganishga davat etgan. Natijada xalqning tafakkur darajasi ko‘tarilib kelgusi istiqbolni belgilash uchun asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qildi.

Jamoatchilik muhokamalarining yuqoridaagi amalga oshirilgan ishlar asosida o‘rganilishi bugungi zamonaviy fuqarolik jamiyatni rivoji yo‘lida olib borilayotgan amaliy ishlarda muhim rol o‘ynaydi va bu yo‘nalishdagi ishlar samarasiga ijobiy ta’sir etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. А. Иброҳимов Биз ким, ўзбеклар... Миллий давлатчилигимиз асослари ҳакида мулоҳазалар. Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа концерни бош таҳририяти, 1999, 209-бет
2. З.Абдурашидов. Туркистон жадидлари ва миллий ғоя тарғиботи. “Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган ҳиссаси ва унинг Миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти” мавзуусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2026 йил 15 апрель. 26-б
3. М.Эргашева. Жадидшуносликнинг карvonбошиси. International conference on multidisciplinary science, volume-1, issue-6. Page-36.
4. Г.Махмудова. Жадид аллома – Мунаввар қори Абдурашидхоновнинг миллий уйғониш дастури. Central Asian journal of aducation and innovation. Volume 2, Issure 4, Aprel 2023, page-167.
5. Г.Махмудова. Жадид аллома – Мунаввар қори Абдурашидхоновнинг миллий уйғониш дастури. Central Asian journal of aducation and innovation. Volume 2, Issure 4, Aprel 2023, page-167.
6. Д.Амриддинова. Ёшлиар тарбиясида Исҳоқжон Ибрат маънавий меросининг аҳамияти. Educational Research in Universal Scienc. ISSN: 2181-3515. VOLUME 1. ISSUE 2. 2022. Page-33-34.

7. 111 ватандош алломаларимиз. Инсоний фазилатлар ҳақида ҳикматли сўзлар. “Янги аср авлоди”. Т;: 2017, 11-бет

8. Т.Қозоқов. Фарғона водийсида жадидчилик ҳаракатининг шаклланиши ва ривожланиш боскичлари. Тўплам. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари (Жадид маърифатпарварларининг миллий таълим, матбуот, адабиёт ва санъатни ривожлантиришга қўшган хиссаси ва унинг Миллий гоя тарғиботидаги аҳамияти мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами) 2016, 52-бет

9. Т.Қозоқов. Фарғона водийсида жадидчилик ҳаракати. Монография. 2018, 113-бет

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2023 йил 11 декабрдаги “Жадидлар: миллий ўзлик, истиқолол ва давлатчилик ғоялари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчилари табриги.

11. Ю.Манзаров. Жадидчилик ҳаракатининг миллат маънавияти ва маърифатини кўтаришдаги ўрни. (2022) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, (11), 393

12. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/halim-sayyid-jadidchilik-yangicha-harakat.html>

13. Abduraxmonova, M. M., & Turgunboev, A. F. (2023). Aholiga sifatli ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda jamoatchilik fikriga tayanish samaradorligi. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(22), 192-200.28.

14. Абдурахмонова, М. М., & Турғунбоев, А. Ф. (2022). Жамоатчилик фикрининг келиб чиқиши омиллари, шакллари ва фаолият йўналишлари. Research Focus, 1(1), 324-326.29.